
Mobil-ID tizimi orqali Davlat xizmatlaridan foydalanish


Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun mobil-ID tizimi joriy etildi

Mobil-ID tizimi foydalanuvchilari elektron raqamli imzoni qo'llamagan holda barcha davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalariga qo'shimcha ravishda jismoniy shaxsni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimi joriy etiladi.


Mobil-ID tizimi "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash bo'yicha yagona axborot tizimi tarkibiy qismi hisoblanadi va shaxsni uning mobil telefon raqami orqali identifikatsiyalashni nazarda tutadi.

Shaxsni mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyalash fuqaro xohishiga ko'ra DXM yoki notarial idora tomonidan yoxud YaIDXP mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.



Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyadan o'tish uchun fuqaro tomonidan bevosita markaz yoki notarial idoraga murojaat qilinganda shaxsni tasdiqlovchi hujjat asli taqdim etiladi hamda markaz yoki notarial idora xodimi tomonidan fuqaro yuzi raqamli formatda rasmga tushiriladi, elektron shaklda qo'l barmog'i izi olinadi va mobil telefon raqami YaIDXPdagi shaxsiy kabinetga bog'lanadi.

Mobil-ID tizimi yordamida identifikatsiyadan o'tish uchun fuqaro tomonidan YaIDXP mobil ilovasidan foydalanilganda masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) usuli yoki ID-kartadagi elektron raqamli imzo qo'llaniladi hamda mobil telefon raqamli YaIDXPdagi shaxsiy kabinetga bepul bog'lanadi.



Bevosita markazlar yoki notarial idora orqali fuqarolarni mobil-ID tizimiga identifikatsiya qilish 2022-yil 31-dekabrga qadar to'lov undirilmasdan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab bazaviy hisoblash miqdori 2%i miqdorida bir martalik to'lov undirilgan holda amalga oshiriladi.

Mobil-ID tizimi foydalanuvchilari elektron raqamli imzoni qo'llamagan holda barcha davlat xizmatlaridan (bundan moliyaviy xizmatlar mustasno) foydalanishi mumkin.

Fuqaroning YaIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuboriladigan barcha xabarnomalar uning xohishiga ko'ra va belgilangan to'lovlar asosida mobil-ID tizimi orqali identifikatsiyalangan mobil telefon raqamiga SMS-xabar shaklida yuboriladi.

O`zbekiston tumani adliya bo`limi Davlat xizmatlari markazi

2022-09-23 17:57:13